

Sudlar faoliyati takomillashtiriladi

Sudlar faoliyati takomillashtiriladi

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Murojaatnomasida sud-huquq sohasini isloh qilish masalasiga e'tibor qaratildi.

Adolat - bu davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Davlatimiz rahbari bu borada qilinishi lozim bo`lgan ishlarga ham to`xtaldi.

Yangi yildan boshlab fuqarolik, iqtisodiy va jinoyat ishlari bo`yicha viloyat darajasidagi 3 ta sudlar bitta sud sifatida birlashtirilib, "Bir sud - bir instantsiya" tamoyili joriy etiladi. Viloyat sndlari ustidan berilgan shikoyatlar shu sud tomonidan ko`rib chiqilishi amaliyoti bekor qilinadi.

Sudlarda ishlarni ko`rib chiqish sifatini oshirish zarur. Chunki o`tgan yilda Oliy sud tomonidan quiyi sudlar tomonidan chiqarilgan 13 ming qaror o`zgartirilgan.

2021 yildan boshlab bir-birini takrorlaydigan sud bosqichlari qisqartirilib, odil sudlovga xos bo`Imagan ishlarni nazorat tartibida ko`rish bekor qilinadi. Fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma'muriy sudlar emas, yagona sud amaliyoti yo`lga qo`yiladi. Bu yangilik aholi va tadbirkorlarga katta qulayliklarni yaratadi.

Sudlar mustaqilligi ta'minlanishi natijasida joriy yilning o`zida sudlangan shaxslarning 74 foiziga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog`liq bo`Imagan jazolar tayinlangan.

Jazo muddatini o`tayotgan va tuzalish yo`liga qat'iy kirgan 616 nafar fuqaro afv etilgan. Sudlar mustaqilligi ta'minlanishi natijasida o`tgan 2020 yilda 719 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan.

Shuningdek, yangi yildan sud muhokamasiga qadar sudda ishlarni dastlabki eshitish amaliyoti yangi tartib sifatida joriy etiladi. Bunda ishni to`xtatish yoki tugatishga asos yetarli bo`lsa, sud ishni avvalgiday tergov yoki prokurorga qaytarmasdan, o`zining yakuniy qarorini qabul qiladi.

Investorlarni qo`llab-quvvatlash, ularga sharoit yaratish maqsadida investitsiyaga oid ishlar Oliy sudda ko`rib chiqiladi. Ya`ni, ular to`g`ridan-to`g`ri Oliy sudga murojaat qilishi mumkin bo`ladi. Onlayn sudlar joriy etiladi. Bu fuqarolarga har tomonlama qulaylik yaratadi.

O`zbekiston fuqarolari qayerda bo`Imasin, ularning konstitutsiyaviy huquqlari ishonchli himoya qilinmoqda. "Mehr-3" operatsiyasi amalga oshirilib, Suriyadan yana 98 nafar fuqaro, asosan ayollar va bolalar Vatanimizga olib kelingani buning yaqqol tasdig`idir.

Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz sharoitida O`zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosatni faol olib bormoqda.

Mamlakatimiz tarixda birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo`yicha kengashiga a`zo etib saylandi. Yaqinda AQSh davlat departamenti tomonidan O`zbekiston diniy erkinlik sohasidagi "maxsus kuzatuvdagи davlatlar" ro`yxatidan chiqarilgani ham keng ko`lamli demokratik islohotlarimizning e'tirofidir.

Sohadagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi – jamiyatda adolat, qonun, odil sudlovi ta'minlash, inson haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdir.

Bugungi kunda bu borada sudbyalar va sud xodimlari oldiga katta va o`ta mas'uliyatli vazifalar qo`yilgan.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, O`zbekistonda sudbyalar qonunlarning tolmas himoyachilarini, adolatning mustahkam ustunlari bo`lishi lozim.

Jinoyat ishlari bo`yicha

Beshariq tuman sudining sudyasi

N.Salomov

2021-01-07 18:01:45